

BO'LAJAK JURNALISTLARGA SOHAGA OID CHET TILINI SAMARALI O'QITISH

Hamdamova Kamola Luqmonjon qizi
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
stajyor-o'qituvchisi
E-mail: kamolagemini@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy maqolada mamlakat ahamiyatiga ega bo'lgan kasb vakillari – bo'lajak jurnalistlarga ingliz tilini o'rgatish hamda uning samaradorligi xususida fikr olib boriladi. Muallifning ayni shu mavzudagi shaxsiy taklif va xulosalari bayon qilinadi.

Kalit so'zlar. Jurnalist, ingliz tili, internet, kompyuter, axborot, kommunikatsiya, ilm-fan, shaxsiy rivojlanish, mustaqil ko'nikma, malaka.

Dolzarbligi. Bugungi kunda hech bir mamlakat o'z imijini jurnalistlarning samarali mehnatisiz tasavvur qila olmaydi. Sababi bugun butun dunyo bo'y lab axborot xuruji asrida yashamoqdamiz. Jurnalist esa ayni shu axborotlarni tartibga soluvchi, boshqaruvchi, dunyo tajribasi bilan aytganda xalqning vijdoni hisoblanadi. Ayni shu jihatdan jurnalistning avvalo o'zi axborot bilan yetarlicha to'yingan, qo'lida dunyo miqyosidagi yangiliklardan kamida 3-4 rasmiy ma'lumotning tahlili turgan bo'lishi kerak.

Kirish. Til asosiy aloqa vositasidir, u bo'lmasa inson jamiyatining borligi va rivojlanishini tasavvur qilish qiyin. Bugungi zamon shiddat bilan odimlayotgan bir paytda aloqa axborot vositalari (axborot texnologiyalari) o'quvchilarning kommunikativ malakasini oshirishni talab qiladi. Ulardan muloqotning boshqa ishtirokchilari bilan o'zaro muloqot qilish jarayonida, turli vaziyatlarda fikr almashishni, til va so'zlashuv normalarini to'g'ri ishlatalishni talab qiladi. Bunday sharoitda, xorijiy tilning asosiy maqsadi kommunikativ qobiliyatni shakllantirishdir, ya'ni chet tilida shaxslararo va madaniyatlararo muloqotni amalga oshirishni talab etadi. Ayniqsa, hozirgi zamonaviy jurnalist xorij yangiliklari va ma'lumotlariga tayangan xolda ommaga sifatli kontent taqdim etishi kerak. Buning uchun esa ingliz tilini mukammal bilishi va ma'lumotni tahlil qila olishi kerak. Bu o'z navbatida bugungi kun pedagogidan bo'lajak jurnalistlarga sifatli ta'lim berish, ingliz tilini puxta o'rgatish, malakali kadr darajasida tayyorlash vazifasini yuklamoqda.

Asosiy qism. Yaqin tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, O‘zbekistonda 2020-yilga qadar Oliy ta’lim muassasalarida jurnalistika sohasi bo‘yicha o‘qishga kirish jarayonlarida abituriyentlardan ingliz tili fanidan imtihon topshirish talab qilinmagan. Lekin ularga sohani chuqur o‘rgatish mobaynida boshqa fanlar qatori ingliz tili fani ham o‘qilib kelinmoqda, negaki, sohaga oid ko‘p terminlar ingliz tilidan kelib chiqqan. Afsuski ko‘pchilik talabalarda chet tilini o‘rganish va o‘zlashtirish bilan bog‘liq muammolar mavjud. Shularni hisobga olgan holda, bo‘lajak jurnalistlarga ingliz tilini o‘rgatish jarayonida darsni qanday tashkillashtirish haqida o‘z takliflarimni quyida bayon qilaman:

- Avvalo, bo‘lajak kadrning ingliz tilini bilish darajasini aniqlash va bilimiga ko‘ra guruhlarga ajratish;
- Doimgidek, ingliz tilini o‘qitishda grammatikaga asoslanib qolmasdan talabalarning tinglab tushunish, o‘qish, yozish va gapirish ko‘nikmalarini shakllantirish;
- Sohaga doir kitoblardan ta’lim berish jarayonida qo‘llash va internet materiallaridan foydalanish;
- Har bir darsni talabalar tomonidan tayyorlangan ingliz tilidagi yangiliklarni eshitib, tahlil qilish bilan boshlash;
- Yangi mavzu yuzasidan yangi so‘zlar, atamalar, terminlar, so‘z birikmalarini doskaga yozib, ma’nolarini tushuntirish, har biriga izoh berish va misollar orqali yoritib berish;
- Dars jarayonida mavzuga oid mashg‘ulotlarni ingliz tilida bajarish: jumladan, juft bo‘lib suhbat jarayonini tashkil qilish (interview), monolog aytish (tedtalk), kichik guruhlarga ajratib muzokara o‘tkazish (debate), hisobot topshirish (report), yangilik izlash va tahlil qilish kabilar;
- Eng asosiysi bo‘lajak jurnalistlarning maqola yozish, suratdagi vaziyatni tahlil qilish va kreativ fikrlash mahoratini oshirishga doir mashqlar bajarish;
- Bundan tashqari talabalarga turli mavzular, jumladan, shoshilinch vaziyatlar (portlash, yong‘in, suv toshqini, iqtisodiy krizis, keskin ob-havo o‘zgarishlari) da mutaxassislar bilan ishlash uchun intervyu savollarini tuzish bo‘yicha doimiy topshiriqlar berib borish;
- Oraliq va yakuniy nazorat topshiriqlarida doimiy ravishda bir xil qolip (test ko‘rinishi) da emas, sohaga oid ijodiy topshiriqlar berish. Masalan, yurtimizga tashrif buyurayotgan turistlar bilan intervyu tashkil qilish;
- Talaba markazda tamoyiliga asoslanib dars o‘tish, ya’ni bir nechta talabaga alohida mavzu berib, mustaqil o‘zlashtirishini ta’minlash, prezentatsiya tayyorlab mavzuni yoritib berish vazifasini yuklash;

•Har bir talabaga dars so‘ngida tayyorlab kelgan ishi uchun o‘qituvchi va guruhdoshlari tomonidan fikr va mulohazalar berish;

Xulosa: Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ilm – sarhadlari keng tushuncha. Har bitta sohaning esa o‘ziga yarasha minglab terminlari mavjudki, aynan jurnalistika sohasida ularni bilmasdan turib qo‘llash to‘g‘rilash mumkin bo‘lmagan xatolarga sabab bo‘lishi mumkin. Chunki jurnalistika sohasining ish quroli bu – so‘z. Jamiyatning yetaklovchi qatlami sifatida esa jurnalistlarning xato qilishga haqqi yo‘q. Shu boisdan soha vakillariga ingliz tilini tizimli, aniq rejalar asosida o‘rgatish zarur. Ularga har bitta terminning kelib chiqishi va qo‘llanilishi bilan bog‘liq ma’lumotlar berilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Ok.ru internet ma’lumotlari;
2. “The New York Times” jurnalining ma’lumotlari;
3. Rahmonova M.Q. Talim jarayonida o‘quv munozaralarini tashkil etishda o‘qituvchining pedagogik mahorati, ijodkorligi va faolligi (2020).